



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI TA'LIMINI IJODIY TASHKIL QILISH YO'LLARINING MOHIYATI VA AFZALLIGI

Qurbonova Mashhura Muzaffar qizi

UrDu Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7539727>

ARTICLE INFO

Received: 04th January 2023

Accepted: 14th January 2023

Online: 16th January 2023

KEY WORDS

Ona tili, ona tilini ijodiy tashkil qilish, boshlang'ich sinf, didaktik o'yin, grammatik o'yin, "Ertakona mo'jiza" metodi, gap.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitish, ona tili darslarini ijodiy tashkil qilish va metod qo'llash haqida so'z boradi. Boshlang'ich sinflarda ona tili faniga ijodiy yondashish juda katta ahamiyat kasb etadi. Ona tili fani boshlang'ich sinflarda muhim o'ringa ega.

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan yosh avlodlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib, yetishishlariga bog'liq. Xususan, maktabga ilk qadamini qo'ygan yosh avlod eng birinchi ona tilining ilk tushunchalarini ilg'ashdan bilim olishni boshlaydi.

Bu go'zal tilimizni qanday holatda, yosh avlodimiz ongi shuuriga singdirish esa, har bir pedagog zimmasiga o'ta mas'uliyatli vazifa qilib, yuklatilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil qilsak, albatta, har bir yosh avlodimiz hisoblangan boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z ustida mustaqil ishlaydi. O'quvchining tafakkuri oshadi va fikrlash doirasi kengayadi. O'quvchilarda yashirinib yotgan qobiliyatlarning yuzaga chiqishiga, albatta, darsni ya'ni har bir o'tilmoqchi bo'lgan yangi mavzuni ijodiy tashkil qilish keng yo'l ochadi.

Ona tili ta'limini ijodiy tashkil qilishda, ona tili darsliklaridagi har bir bo'lim mavzulari yuzasidan yangi-yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda, ijodiy yondashsak, ya'ni turli didaktik va grammatik o'yinlar o'tkazib, o'quvchini dars jarayonida faolligini oshirib, bilim olishga bo'lgan qiziqishini orttira olsak biz, albatta, ko'zlangan buyuk maqsadlarning boshlang'ich poydevorini mustahkam qo'ya olgan bo'lamiz. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil qilish deganda, albatta, o'tilmoqchi bo'lgan yangi darsga yangicha yondashuv unda yangi metod va usullardan foydalangan holda darsni tashkillashtirish tushuniladi. Darsni odatiy tarzda emas unga noodatiy yondashgan holda, qiziqarli va sodda tilda ya'ni o'quvchi tushunadigan tartibda o'rgatilmog'chi bo'lgan yangi mavzuni o'quvchilar ongiga mustahkam o'rnashib qoladigan va ularning nutqiy hamda yozma savodxonligini oshiradigan qilib, ularning mustaqil fikrini erkin bayon qiluvchi, qolaversa intellektual salohiyatli shaxs qilib tarbiyalashda, albatta, yangicha pedagogik texnologiyalar va metodlarga tayangan darslarni to'g'ri tashkillashtirish o'rinli bo'ladi.



Bunda, masalan, bo'shlang'ich sinflarda 3-sinf Ona tili darsligidagi "Gap" bo'limi materiallaridan, "Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari" mavzusiga quyidagi tarzda ijodiy yondashsa bo'ladi.

Jumladan, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini o'quvchilarga "Ertakona mo'jiza" deb nomlangan yangicha pedagogik texnologiyadan foydalangan holda yangi darsni yangicha usulni qo'llab tashkillashtirsak bo'ladi. Chunki, boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya olayotgan har bir o'quvchi ertakka, qiziqarli hikoyalarga qolaversa, multfilm qahramonlariga, ularning xatti-harakatlariga juda qiziqadi. Hattoki, ularning aytgan gaplarini yod olishadi va taqlid qilishadi. Shuning uchun, ona tili darslarida va boshqa fanlardayam xohlagan bitta mavzuga ertakona yodashib darsni ijodiy tashkillashtirsak bo'ladi. Butun boshli bir mavzuga ertak asosida yondashib o'sha mavzuni o'quvchilarga qiziqarli tarzda yetkazib bersa bo'ladi. Darsdagi mavzuni ertak asosida hikoyalash orqali tushuntiriladi bu noodatij dars o'quvchi ongiga o'sha ertak asosida singdiriladi. Bunda yangi mavzuni o'quvchiga hikoyalash orqali bilim berish nazarda tutiladi va ertakning tarbiyaviy ahamiyatini o'quvchilarga o'rgatish, ertak qahramonlarining ijobiy sifatlarini ularda shakllantirish orqali darsga to'g'ri yondashilsa, yana bir karra g'alabani qo'lga kiritgan bo'lamiz.

Masalan, quyidagida:

"ERTAKONA MO'JIZA" metodi

Qadim-qadim zamonlarda, buyuk Turon tomonlarda "Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari" degan bitta shinam uyda to'rtta aka-uka yashar ekan. Ularning o'z xislatlariga monand ismlari bo'lib, to'ng'ichining ismi- Darak gap, ikkinchisining ismi- So'roq gap, uchinchisining ismi- Buyruq gap va kejasining ismi- His-hayajon gap ekan. Ularning xatti-harakatlari ham, ismlariga juda mos bo'lib, Darak gap doimo har yangi kunni har turli yangi xabarlarini aytishdan boshlar, uning xabarlarini kimlarnidir xursand va yana kimlarnidir xafa qilish bilan tugar ekan. So'roq gap esa, qolgan ukalarini va akasini so'roqqa tutib, har xil savollar berishdan boshlasa, Buyruq gap akasi Darak gapdan eshitganlari ustidan o'zicha hukm chiqarar, akalariga va boshqalarga buyruq berishni xush ko'rarkan. Kenjatoy His-hayajon gap esa, juda ta'sirchan bo'lib bir qarasangiz juda hayajondan xursand bo'lib ketar va bir qarasangiz xafaday g'amgin yurarkan. His-hayajon gap rahmdil, oliyjanob bo'lib g'amgin insonlarga qayg'udosh va xursand insonlarga ham birdek yelkadosh ekan. To'rtta og'a-ini to'rtta bir xil xabar aytmoqchi bo'lsalar, Darak gap o'ziga xos tarzda oddiygina xabar berib qo'ya qolarkan. So'roq gap esa, shu xabarning ajablanib so'rog'ini so'rasa, Buyruq gap xabardan hukm yasab tolmas, His-hayajon gap esa xabarlardan to'lqinlanib ba'zida hayajondan xursand, ba'zida xafa bo'larkan. Agar, Darak gap: "Bahor keldi" desa, So'roq gap: "Bahor keldi?" deb so'rar, Buyruq gap: "Bahor keldi" deb aynan uning kelishi haqda hukm chiqarsa, His-hayajon gap: "Bahor keldi!" deb juda to'lqinlanib aytarkan. Ularning ohanglaridagi o'zgachaliklar bir-birini takrorlamas ekan. Har biri o'zining betakror ohangi bilan odamlar nutqidan joy egallagan ekanlar.

Shu tarzda boshlang'ich sinflarda darslarni ijodiy tashkillashtirish mumkin. Nafaqat, darsni ijodiy tashkil qilish balki uni obrazli holda tashkillashtirsa ham bo'ladi. Ya'ni o'quvchilarning o'zini ertak qahramonlari qilish orqali ulardagi darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish mumkin. Bunda o'quvchilar ko'proq bilimga ega bo'lish bilan birga, ularda ko'nikma va malakalar shakllantiriladi hamda o'quvchilarda yashirinib yotgan qobiliyatlar va iste'dodlar



namoyon bo'la boshlaydi. Darsga ijodiy yodashuv O'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantiruvchi bo'lib, xizmat qiladi. Bu esa intellektual har tomonlama ham jismonan, ham manan barkamol, mustaqil fikrga va keng dunyoqarashga ega bo'lgan manaviyatli shaxsni tarbiyalashda keng yo'l ochadi.

Darslarni qanday va qay holda tashkillashtirish har bir pedagog hodimning kasbiy mahorati qolaversa, ko'p yillik tajribasidan kelib chiqadi.

Xulosa: Demak, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil qilishning afzalligi shundan iboratki, o'quvchini mustaqil fikrlovchi, ularda yashiringan qobiliyatlarni ochuvchi, og'zaki nutqini o'stiruvchi bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent "Nosir" nashriyoti 2009.
2. Ibragimova F, Farsaxonova D, Shukurova X, Mamayusupova S, Xolsaidov F "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent "Innovatsiya-ziyo" 2021.
3. S. Fuzailov, M. Xudayberganova, Sh. Yo'ldosheva Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2016